

BIZNES INKUBATORLARNI TASHKIL ETISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNI RESPUBLIKAMIZDA QO`LLASH

Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasi katta o`qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqola xorijiy mamlakatlarda biznes-inkubatorlarni tashkil etish va rivojlantirish tajribasi, ularning kichik biznes qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ta’siri yoritilgan. Xususan, AQSh va Xitoy kabi mamlakatlarda biznes-inkubatorlar faoliyatini tashkil etish mexanizmlari, innovatsion startaplarni rivojlantirish, universitetlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash amaliyoti tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, biznes-inkubatorlar faoliyatini takomillashtirish hamda ularning kichik biznes subyektlari samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: biznes-inkubator, xorijiy tajriba, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, innovatsiya, startap, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, universitet inkubatorlari, davlat ko‘magi, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion rivojlanish.
Abstract: This article examines international experience in establishing and developing business incubators, their role in supporting small businesses, and their impact on improving economic efficiency. In particular, it analyzes the mechanisms for organizing business incubator activities in countries such as the United States and China, the development of innovative startups, cooperation with universities, and practices of government support. Furthermore, the article develops proposals and recommendations for adapting international experience to the conditions of Uzbekistan, improving the activities of business incubators, and expanding their potential to enhance the performance of small business entities.
Keywords: business incubator, international experience, small business, private entrepreneurship, innovation, startup, entrepreneurship support, university incubators, government support, economic efficiency, innovative development.
Абстрактный: В данной статье рассматривается зарубежный опыт создания и развития бизнес-инкубаторов, их роль в поддержке малого бизнеса и влияние на повышение экономической эффективности. В частности, анализируются механизмы организации деятельности бизнес-инкубаторов в таких странах, как США и Китай, развитие инновационных стартапов, налаживание сотрудничества с университетами, а также практика государственной поддержки. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по адаптации зарубежного опыта к условиям Узбекистана, совершенствованию деятельности бизнес-инкубаторов и расширению их возможностей в повышении эффективности деятельности субъектов малого бизнеса.
Ключевые слова: бизнес-инкубатор, зарубежный опыт, малый бизнес, частное предпринимательство, инновации, стартап, поддержка предпринимательства, университетские инкубаторы, государственная поддержка, экономическая эффективность, инновационное развитие.

Kirish (Введение/Introduction).

Biznes-inkubatorlar xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan bugungi kunga qadar keng qamrovli o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning kichik biznesni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sirini yanada chuqur tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, biznes-inkubatorlar dunyoning deyarli barcha rivojlangan davlatlarida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlarda biznes-inkubatorlarni tashkil etish va rivojlantirish tajribasi, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash usullari hamda faoliyat yuritish tamoyillarini O‘zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday tahlillar asosida mamlakatimizda biznes-inkubatorlar faoliyatini takomillashtirish, ularning kichik biznes subyektlari rivojlanishiga ta’sirini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini oshirishning samarali yo‘nalishlarini ishlab chiqish imkoniyati kengaymoqda.

Ta’kidlash joizki, biznes-inkubatorlarni qo‘llab-quvvatlash masalasi turli darajalarda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday qo‘llab-quvvatlash, eng avvalo, yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning dastlabki xarajatlarini kamaytirish, zarur infratuzilma va maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda biznes g‘oyalarini barqaror faoliyat yurituvchi korxonalarga aylantirishga ko‘maklashishni nazarda tutadi. Shu bois biznes-inkubatorlarni rivojlantirish va davlat tomonidan tizimli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mamlakatning innovatsion salohiyatini yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, biznes inkubatorlarning prototiplari XX asr o‘rtalarida Buyuk Britaniyada paydo bo‘lgan. Birinchi biznes inkubator 1959-yilda Jozef Mansuso tomonidan tashkil etilgan. O‘sha davrda Jozef Mansuso Bataviya zavodida ombor sotib oladi va Amerikada Bataviya sanoat markaziga asos soladi. Uning maqsadi iqtisodiy tushkunlikka uchragan shaharda yangi ish o‘rinlari yaratish edi. 1985-yilga kelib dunyoda 70 ga yaqin biznes inkubator bo‘lgan bo‘lsa 1992-yilda 472 ta, 1995 yillarda esa 1100 tagacha oshib Birlashgan Millatlar Assosiasiyasiga birlashgan va hozirgi kunga kelib AQSh da eng ko‘p biznes inkubatorlar yaratilgan bo‘lib dunyo bo‘yicha hisoblaganda 2000 dan ortiq yirik biznes inkubatorlar ish olib boradi.

Xorijiy mamlakatlar biznes inkubatorlarni tashkil etishning jahon tajribasini o`rganish muhim jihatlari shundaki, yaqin yillargacha rivojlangan davlatlar bo`yicha ham ishonchli ma`lumotlar, tahlillar va miqdoriy dalillar kam bo`lgan. Biroq AQSh ning biznes inkubatorlar tizimi eng rivojlangan tizimlardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы / Literature review). Xorijiy olimlar A. Bergek, C. Norrman, S. Hackett va D. Dilts “tadqiqotlarida biznes-inkubatorlarni tashkil etish, ularning

samaradorligini oshirish hamda startaplarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari”[1] yoritilgan. OECD tadqiqotlarida esa biznes-inkubatorlarning xalqaro tajribasi, davlat ko‘magi va universitetlar bilan hamkorlik masalalari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar asosida xorijiy tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, biznes-inkubatorlar faoliyatini takomillashtirish va kichik biznes samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyati o`rganilgan.

Shuningdek, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa biznes-inkubatorlarning xalqaro tajribasi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish hamda universitetlar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar biznes-inkubatorlar faoliyatini mamlakatning iqtisodiy va institutsional xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etish lozimligini ko‘rsatadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, AQShda biznes-inkubatorlar asosan xususiy sektor, venchur kapital, universitetlar va innovatsion ekotizim bilan hamkorlik asosida rivojlansa, Xitoyda davlat ko‘magi, ilmiy-texnologik parklar va universitetlar bilan integratsiyalashgan faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tajribalarni o‘rganish O‘zbekistonda biznes-inkubatorlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, startaplarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish imkoniyatlarini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы / Methods). Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xorijiy mamlakatlarda biznes-inkubatorlarni tashkil etish va rivojlantirish tajribasi o‘rganilib, ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari hamda kichik biznes samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты / Analysis and rezults). Bugungi kunda dunyo bo‘yicha 7000 dan ortiq biznes inkubatorlar faoliyat yuritmoqda. Ularning mintaqalar bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Shimoliy Amerika: 1900+ inkubator
- Evropa: 1800+ inkubator
- Osiyo-Tinch okeani mintaqasi: 2000+ inkubator
- Lotin Amerikasi: 600+ inkubator
- Afrika va Yaqin Sharq: 700+ inkubator [2]

Mamlakatda biznes inkubatorlar faoliyatining eng muhim jihatlaridan sanalmish uni moliyalashtirish mexanizmlaridir. Federal dasturlar – Small Business Administration (SBA), Economic Development Administration (EDA) kabi federal agentliklar inkubatorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, SBIRs (Small Business Innovation Research) dasturi orqali ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirilgan startaplarga grantlar ajratiladi. Shuningdek, Shtatlar va mahalliy hokimiyat dasturlari – ko‘pchilik shtatlar inkubatorlarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlarni amalga oshiradi. Masalan, Massachusets shtatida Mass Challenge akseleratori shtat tomonidan qisman moliyalashtiriladi.

Universitetlar mablag‘lari – MIT va Stenford kabi yirik universitetlar o‘z inkubatorlarini moliyalashtiradi. Shu jumladan, xususiy sektor investisiyalari – Techstars va Y Combinator kabi xususiy inkubatorlar va akseleratorlar investisiya fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Korporativ mablag‘lar – Google, Microsoft, Amazon kabi yirik texnologik kompaniyalar o‘z inkubatorlarini moliyalashtiradi. Umuman olganda AQShda inkubatorlarni moliyalashtirishning eng samarali modellaridan biri – bu daromadni taqsimlash modeli. Bunda inkubator rezident kompaniyaning ulushiga ega bo‘ladi (odatda 6-8%) va kompaniya muvaffaqiyatga erishganda foyda oladi. Y Combinator inkubatori aynan shu modeldan foydalanadi.

Ma`lum bo`ldiki AQShda inkubatorlarning integrasiyalashuvi 32% universitetlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Universitet inkubatorlarining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u professor-o‘qituvchilar va talabalar loyihalarini qo‘llab-quvvatlash – MIT Media Lab, Stanford's Start X kabi inkubatorlar universitet xodimlari va talabalarining loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliyot integrasiyasi – Universitet inkubatorlari ilmiy tadqiqot natijalarini real biznesga aylantirish imkonini beradi. Aksariyat hollarda, talabalarni tadbirkorlikka o‘qitish – Universitet inkubatorlari talabalarga amaliy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Misol sifatida Stanford University qoshidagi Start X inkubatorini keltirish mumkin. Bu inkubator 2011-yilda tashkil etilgan bo‘lib, allaqachon 300 dan ortiq startaplarni inkubasiya qilgan va ular 1.9 milliard AQSh dollaridan ortiq investisiya jalb qilgan[3].

Davlat infratuzilma yaratish va moliyaviy yordam ko‘rsatish vazifasini o‘z zimmasiga olar ekan, xususiy sektor ekspert maslahatlari va tajriba almashinuvini ta'minlashi muhim hisoblanadi. Uzoq yillar davomida rivojlanib kelayotgan xorijiy mamlakatlarning biznes inkubatorlarini boshqa davlatlar bilan solishtirganda AQSh va Buyuk Britaniya eng yuqori natijaga erishganini ko`rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Biznes inkubator jarayonini o'rganish bo`yicha xorijiy davlatlar tajribasi [4]

Mamlakat	Tadqiqotlar soni	
AQSh	9	(Xarper-Anderson va Lyuis, 2
Buyuk Britaniya	7	(Hughes va boshqalar, 2007,
Germaniya	6	(Harima va boshqalar, 2019 ,
Hindiston	6	(S. Bose va boshq, 2017, Ratl
Portugaliya	6	(Franko va boshq., 2018, Rati

Yuqoridagi 1-jadvalda, turli tadqiqotchilar inkubatorlar o'zlarining umumiy strategiyasini ishlab chiqish va inkubatsiya jarayonlarini ular faoliyat yuritadigan muhitning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra mamlakat va mintaqaviy kontekstni inkubator turiga moslashtirish zaruriyatini alohida shakllantirish muhimligini ta'kidlaydilar (McAdam va boshq, 2016, Theodoraki va boshq, 2020). Ya'ni, har bir biznes inkubator faoliyatini amalga oshirishda uning joylashgan hududidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va institusional muhitni hisobga olishi lozimligiga ham to`xtalgan. Biznes inkubatsiya jarayonini o`rganish bo`yicha AQShda (9 ta tadqiqot), Buyuk Britaniyada (7 ta), Germaniya, Hindiston, Portugaliyada (6 ta) tadqiqotlar olib borilgan.

AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarning tajribasiga asoslanib, O‘zbekistonda biznes-inkubatorlarni tashkil etish va rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo‘llash lozim. Bu mexanizm davlat resurslari va xususiy sektor salohiyatini birlashtirish imkonini beradi.

AQSh inkubatorlar faoliyatini baholashda bir nechta muhim mezonlar mavjud. Inkubatorlar startaplarga qulay muhit yaratish bilan birga ularni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun resurslar, mentorlik va moliyaiy qo‘llab-quvvatlashlarni taqdim etadi. Ammo inkubatorlarning samaradorligini baholash uchun aniq mezonlar va ko‘rsatkichlar kerak bo‘ladi. AQShda inkubatorlar faoliyatini baholashda ishlatiladigan ba'zi asosiy mezonlar quyidagicha keltirilgan.

1. Rezident kompaniyalarning omon qolish darajasi (72-87% o‘rtacha).
2. Yaratilgan ish o‘rinlari soni (bir inkubator hisobiga yiliga o‘rtacha 150-200 ish o‘rni).
3. Jalb qilingan investisiyalar hajmi (AQShda inkubator rezidentlari tomonidan jalb qilingan investisiyalar hajmi 2024 yilda 200 milliard dollarni tashkil etgan).
4. Patentlar va lisenziyalar soni (universitet inkubatorlari uchun muhim ko‘rsatkich). Shuningdek, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish – ko‘pchilik universitet inkubatorlari intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo‘yicha yordam ko‘rsatadi.
5. Xizmatlardan foydalanuvchilarning qoniqish darajasi.

Yo`qorida keltirib o`tilgan mezonlar AQShning inkubatorlar faoliyatini baholashda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida ishlatiladi. Inkubatorlar faqatgina moliyaviy yordam berish bilan birga, startaplarning

tarmoq, mentorlik, resurslar va rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etish orqali ularning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. AQShda inkubatorlar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari miqdori o`rganilganda u yil sayin o‘sib borganligini ko`zatish mumkin. Misol uchun 2020-yilda AQShda inkubatorlar va akseleratorlar orqali yaratilgan yangi ish o‘rinlari taxminan 4**50,000** dan ortiq bo‘ldi. Bu raqam 2024-yilda yana oshdi, bu esa yangi startaplar va kichik bizneslarning o‘sishiga bog‘liq bo`ldi. Small Business Administration (SBA) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan inkubatorlar orqali har yili o‘rtacha 250,000 yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Techstars, Y Combinator kabi yirik akseleratorlar orqali ko‘plab texnologik startaplar yaratildi, ular o‘z faoliyatini boshlashdan keyin 5 yil ichida o‘rtacha 5,000 ga yaqin[5] yangi ish o‘rni yaratishga erishdi.

Xorijiy mamlakatlarda inkubatorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari asosan, moliyaviy resurslar, sarmoya jalb qilish, soliq imtiyozlari, mentorlik xizmatlari va boshqa tarmoq imkoniyatlari orqali amalga oshiriladi. Har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga mos ravishda inkubatorlarni rivojlantirishda maxsus mexanizmlar yaratgan. Bu mexanizmlar startaplarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va iqtisodiyotning innovatsion o‘sishiga xizmat qiladi. Quyida jadvalda turli xil mamlakatlarda biznes inkubatorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Xorijiy mamlakatlarda biznes inkubatorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari[6]

Mamlakat	Davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari	Soliq imtiyozlari	Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash
AQSh	Federal va shtat dasturlari, grantlar	Soliq kreditlari, tezlatilgan bo‘yicha imtiyozlar	R&D xarajatlari Grantlar, SBIR/STTR dasturlari
Isroil	Innovasion fondlar, proporsional grantlar	Tadqiqot xarajatlari bo‘yicha soliq chegirmasi	25% Universitetga asoslangan inkubator. Bunday inkubatorlar Xitoyda 1 mln dollarga 0.85%
Singapur	"Smart Nation" dasturi	5 yil davomida soliq ozod qilish	Startaplar uchun 3:1 nisbatda
Koreya	Mintaqaviy innovasion klasterlar	Innovasion kompaniyalar uchun imtiyozli stavkalar	Innovatsion markazlar, Xitoydagi biznes inkubatorlarining so`nggi KOSME dasturi, eksportni
Germaniya	High-Tech Gründerfonds	Tadqiqotchilar uchun soliq imtiyozlari	Daromadga qarab grantlar, imtiyozli kreditlar
Xitoy	"Torch Program", innovasion zonalar	Daromad solig‘ining pasaytirilgan stavkalari	863 va 973 dasturlari
Rossiya	"Skolkovo", MSP korporasiyasi	Innovasion soliq imtiyozlari	Innovatsion grantlar, imtiyozli kreditlar
O‘zbekiston	"IT Park", "Yoshlar texnoparklari"	Start-ap rezidentlari uchun soliq imtiyozlari	Yangi O`zbekiston" startap grantlari

Yo`qoridagi 2-jadvalda, mamlakatlar o‘zining iqtisodiy va innovatsion siyosatiga mos ravishda biznes inkubatorlar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirgan. Davlatlar, asosan, grantlar, sarmoyalar, soliq imtiyozlari, va moliyaviy yordam orqali startaplarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu mexanizmlar startaplarning muvaffaqiyatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va iqtisodiy o‘sishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

2012-yilda (MBIA) tomonidan o‘tkazilgan “Biznes inkubasiya holati” so‘rovnomasida atigi 16 foiz javob beradigan inkubatorlar foyda olish dasturlari bor edi. 2020-yilgi SOIga ko‘ra, so‘ralganlarning atigi 6 foizi foyda olishga qaratilgan. Garchi ba'zi bir kompaniyalar inkubasiya dasturlari (notijorat yoki notijorat maqomidan qat'i nazar) mijozga tenglikni oladi [7].

Dunyoning turli mamlakatlarida biznes inkubatorlar faoliyati samaradorligining ko‘plab misollari mavjud (1.3.3-jadval).

3-jadval

Jahonning etakchi biznes inkubatorlar ko‘rsatkichlari [8]

Inkubator nomi (mamlakat)	Yaratilgan yili	Rezidentlar soni	Muvaffaqiyatli bitiruvchilar	Jalb qilingan investisiyalar	Ixtisoslashuv sohasi
Y Combinator (AQSh)	2005	300+	2000+	$300+ млрд	IT, SaaS, FinTech
TechStars (AQSh)	2006	200+	1500+		
Plug and Play (AQSh)	2006	400+	2000+		
StartX (AQSh)	2011	90+	450+		
Station F (Fransiya)	2017	1000+	200+		
Zhongguancun (Xitoy)	1988	1500+	10000+		
DMZ (Kanada)	2010	150+	500+		
StarTAU (Isroil)	2009	100+	350+		

Yuqoridagi 3-jadvalda, jahonning etakchi biznes inkubatorlari ko‘rsatkichlari keltirilgan, shuningdek, AҚШ: Silicon Valley ва Boston Innovation Center kabi biznes inkubatorlar Apple, Microsoft, Facebook kabi jahon miqyosidagi kompaniyalarning shakllanishiga hissa qo‘shgan. AQShda biznes inkubatorlarda qo‘llab-quvvatlangan startaplarning «Yashab qolish”darajasi 87% ni tashkil etadi.[9].

Xitoy: Zhongguancun Science Park Pekinda joylashgan eng yirik texnologik inkubatorlardan biri bo‘lib, u minglab texnologik kompaniyalarning rivojlanishiga yordam bergan va "Китой Silicon Valley" nomi bilan ham tanilgan.

Universitetga asoslangan inkubator. Bunday inkubatorlar Xitoyda mavjud biznes inkuborlarning maxsus turi bo‘lib, asosan Xitoy universitetlari talabalari va rezidentlari inkubatorlarni yangi innovatsiyalarni startaplar orqali bozorga olib chiqishga yordam beradi.

Innovatsion markazlar. Xitoydagi biznes inkubatorlarining so`nggi turi bo‘lib, ular kompaniyalar uchun innovatsiya, marketing va moliyalashtirish bo‘yicha keng qamrovli xizmatlarni taqdim etadi. Asosiy e'tibor innovatsion markazlarda innovatsion madaniyatni yaratish uchun mahalliy hukumatga xomiylik qilinadi.

AQSh iqtisodiy rivojlanishning muhim qismi bo‘lgan innovatsiya va texnologiyalarni tijoratlashtirishda inkubatorlar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu inkubatorlar startaplar va kichik korxonalarga ularning o‘sishi va muvaffaqiyatiga yordam beradigan resurslar, ko‘rsatmalar va infratuzilmani taqdim etadi. Inkubatorlar turli xil shakllarda bo‘lishi mumkin, jumladan, universitetga asoslangan inkubatorlar, xususiy inkubatorlar va hukumat tomonidan boshqariladigan inkubatorlar. Ular ko‘pincha ofis maydoni, mentorlik, o‘quv dasturlari va moliyalashtirish imkoniyatlari kabi xizmatlarni taklif qiladilar. Ijara yoki mijoz to‘lovlari inkubator daromadlarining 59 foizini, keyinchalik xizmat shartnomalari yoki grantlar (18 foiz) va naqd pul operatsiyalari subsidiyalar (15 foiz) tashkil etadi[10].

Xitoy biznes inkubatorlarni rivojlantirish bo‘yicha dunyoda etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Biznes-inkubatorlar bo`yicha Xitoy tajribasi dunyo olamida alohida ahamiyatga ega. Xitoyda biznes inkubatorlarni tashkil etish Fan va texnologiyalar vazirligi tassarufida bo`lganligi bois, ularga tegishli texnologiyalar bilan shug`ullanuvchi sifatga xizmat ko`rsatadi. Bunda vaziyat Xitoydagi barcha biznes inkubatorlarning yirik ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, Shanxayning uzida 30 dan ortiq biznes-in quvvator faoliyatini yuritib, eng katta 300 ga yaqin kompaniyaga xizmat ko`rsatadi. Buning o'ziga xos "aytgan olimlar" loyixasi asosida yaratilgan. Bu loyixaning mohiyati shundaki, Garbiy Evropa va Shimoliy Amerikada taxsil olib qaytgan xitoylik talabalar, bor bilim va tajribasini Xitoyda yangi kompaniya ochishga sarf qiladi. Birgina shu mamlakatning o`zida 3000 dan ortiq inkubatorlar faoliyat yuritmoqda va ularga yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 3 % dan ortiq tashkil etmoqda.

Ularning ba`zilari quyidagilardan iborat.

- Davlat nazorati – Xitoyda inkubatorlarning aksariyati (70% dan ortig‘i) davlat tashkilotlari yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashkil etiladi va nazorat qilinadi.

- Maxsus iqtisodiy zonalarga integrasiyalashuv – Inkubatorlar ko‘pincha maxsus iqtisodiy zonalar va texnoparklar tarkibiga kiradi. Masalan, Shenchjen maxsus iqtisodiy zonasida o‘nlab inkubatorlar mavjud.

- Yirik miqyoslilik – Xitoyda bitta inkubatorda o‘rtacha 150-200 rezident faoliyat yuritadi, bu ko‘rsatkich AQSh va Evropadagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan (40-60 rezident) ancha yuqori.

- Xorijiy investisiyalarni jalb qilish – Xitoy inkubatorlarining muhim vazifalaridan biri – xorijiy investisiyalarni jalb qilish. Buning uchun xorijiy tadbirkorlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

- Strategik sohalarga yo‘naltirilganlik – Xitoy inkubatorlari davlatning strategik manfaatlariga mos sohalarda (sun'iy intellekt, 5G, yashil energetika, biotexnologiya) faoliyat yuritishga yo‘naltirilgan.

Xitoyning eng yirik inkubatorlaridan biri – Pekindagi Chjunguansun (Zhongguancun) inkubatori. Bu inkubator Xitoyning "Silikon vodiysi" deb nomlanadi va 20,000 dan ortiq texnologik kompaniyalarni o‘z ichiga olgan innovasion hududda joylashgan. Bulardan, Chjunguansun inkubatoridan Lenovo, Baidu, Xiaomi kabi xalqaro kompaniyalar chiqib ketishgan.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения / Conclusion and Recommendations).

O‘zbekistonda biznes inkubatorlarni rivojlantirish uchun xorij tajribasi muhim ahamiyatga ega. Xorijiy mamlakatlardagi biznes inkubatorlar modellarini o‘rganish va ularning mantiqiy qo‘llanilishi O‘zbekistondagi kichik biznesni yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratishi mumkin. Bu tajribalar, resurslar bilan ta'minlash, moliyaviy yordam, innovasiya va tarmoqlar orqali aloqalarni o‘rnatishga asoslangan bo‘lib, mamlakatning tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi [11].

Demak, “AQSh va Xitoy tajribasi biznes-inkubatorlar startaplarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va yuqori texnologiyali kompaniyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi” [12]. Ayniqsa, universitetlar, ilmiy markazlar va mahalliy davlat organlari hamkorligi biznes-inkubatorlar samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Ushbu ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish kichik biznesni rivojlantirish va uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribani o‘rganish asosida O‘zbekistonda biznes inkubatorlarni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Biznes inkubatorlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish. O‘zbekistonda biznes inkubatorlar faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonun qabul qilish maqsadga muvofiq. Bunda AQSh va Evropa mamlakatlarining tajribasi foydali bo‘lishi mumkin. Qonunda biznes-inkubatorlarga beriladigan imtiyozlar, ularning faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish mexanizmlari, rezidentlarni tanlash mezonlari va boshqa masalalar aniq belgilab qo‘yilishi kerak.

2. Universitet inkubatorlarini rivojlantirish. AQSh va Evropa mamalakatlarining tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonning yirik oliy o‘quv yurtlari qoshida universitet biznes inkubatorlarini tashkil etish zarur. Bu inkubatorlar talabalar va professor-o‘qituvchilarning innovasion g‘oyalarini tijoratlashtirishga yordam beradi va "universitet – ilm-fan – biznes” (ishlab chiqarish) integrasiyasini ta'minlaydi[13]. Masalan, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kabi yirik OTMlar qoshida texnologik startaplarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan biznes inkubatorlar ochish mumkin.

3. Mintaqaviy biznes inkubatorlar tarmog‘ini yaratish. Xitoy, Finlandiya va Evropa tajribasiga tayangan holda, O‘zbekistonning barcha viloyatlarida biznes inkubatorlar tarmog‘ini tashkil etish zarur. Bunda mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini va iqtisodiy salohiyatini inobatga olish kerak. Masalan:

- Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida to‘qimachilik sanoatiga ixtisoslashgan inkubatorlar.

- Navoiy va Toshkent viloyatlarida konchilik va sanoat sohasiga yo‘naltirilgan inkubatorlar.

- Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlarida turizm sohasiga ixtisoslashgan inkubatorlar va boshqalar shular jumlasidandir.

4. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari (DXShM)ni joriy etish. - bu davlat - xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni ifodalovchi iqtisodiy model bo'lib, unda davlat va xususiy sektorga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda jamoat xizmatlarini ko'rsatish kabi infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlarini belgilash kerak.

5. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. - bu davlatlar, tashkilotlar, xalqaro subyektlar o'rtasidagi o'zaro manfaatlar asosida kooperatsiyani rivojlantirishga qaratilgan harakatlarni kuchaytirish, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnologik aloqalarni mustahkamlashda umumiy farovonlikni oshirish, shu jumladan Xitoy, Finlandiya kabi boshqa ilg`or mamlakatlarning tajribasidan foydalangan holda, xalqaro tashkilotlarning xorijiy biznes inkubatorlari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Xususan:

- xalqaro ekspertlarni jalb qilish;
- qo‘shma inkubatsiya dasturlarini ishlab chiqish;
- tajriba almashinuv va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;
- xorijiy investorlarni jalb qilish.

6. Biznes inkubatorlar rezidentlarining moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish. Xitoy va Finlandiya tajribasiga asoslanib, O‘zbekistonda biznes inkubatorlar rezident va norezidentlariga moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish kerak. Xususan:

- Imtiyozli kreditlar.
- Soliq imtiyozlari.
- Grant dasturlari.
- Venchur fondlar tashkil etilishini ko`paytirish va uni rivojlantirish.

7. Virtual inkubatorlarni rivojlantirish. Zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish sharoitida virtual biznes inkubatorlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday inkubatorlar kam xarajat talab qiladi va keng qamrovli auditoriyaga xizmat ko‘rsatishi mumkin. Virtual inkubatorlar orqali uzoq hududlardagi tadbirkorlar ham sifatli maslahat xizmatlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Yo`qoridagilardan kelib chiqib, biznes inkubatorlar O‘zbekiston uchun eng maqbul model sifatida **davlat va xususiy sektor hamkorligi**ni tanlash, ayniqsa, mintaqaviy xususiyatlarni, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, davlat-xususiy sektor o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish uchun juda foydali strategiya bo‘lishi mumkin. Bu model O‘zbekistonning rivojlanayotgan iqtisodiyoti va o‘sib borayotgan bozorida samarali ishlashi mumkin, chunki u iqtisodiy resurslarni to‘plash, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni joriy etish hamda yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatishni ta'minlashga yordam beradi.

Shuningdek, xalqaro tajribaga tayangan holda **universitetlar bilan yaqin aloqa o‘rnatish** orqali **biznes inkubatorlar tizimini rivojlantirish,** O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish va yoshlarning tadbirkorlik salohiyatini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Biznes inkubatorlarni rivojlantirish O‘zbekistonda innovasion iqtisodiyotni shakllantiradi, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Hackett S.M., Dilts D.M. A Systematic Review of Business Incubation Research // The Journal of Technology Transfer. — 2004. — Vol. 29. — P. 55–82. — https://doi.org/10.1023/B:JOTT.0000011181.11952.0f.
2. "The Global Impact of Business Incubators: Insights from Various Countries" (J. M. L. Sanchez, 2020)
3. "Global Business Incubation Models: A Comparative Study" (R. S. Khandelwal, 2019) — presents practical models of incubators in various countries, including the USA, some European countries, and China, and considers the possibilities of their implementation in Uzbekistan.
4. Kanza Sohail, Maksim Belitskiy, Liza Kastro Kristiansen. Developing business incubation process frameworks: A systematic literature review. Journal of Business Research journal homepage: www.elsevier.com/locate/jbusres https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2023.113902

5. "The UK Business Incubator Ecosystem: A Case Study" (K. P. Weston, 2020) — Business incubators in Great Britain and their impact on small and medium-sized businesses.
6. Narzullayev, Sh. E. Talaba yoshlarning g‘oyalarini tijoratlashtirishda biznes-inkubator faolligini oshirish yo‘llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. – 2024. – № 3 (may–iyun). – B. 104–113.
7. "Take-off your Startup with Business Incubator" (http://www.billbooks.com/blog/take-off-your-sta rtup-with-business-incubator/). ISSN 0166-4972 (https://www.worldcat.org/issn/0166-4972).
8. Narzullayev Sh. E. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida biznes inkubatorlarning innovatsion salohiyatini boshqarish // Maqola. –OAK Jurnal: “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnali. № 5 son, 2021 yil.
9. "Business Incubators and Their Role in European Innovation Systems" (M. W. Becker, 2016) Business incubators in European countries and their importance in the innovation system.
10. Asish Das (26 April 2016). "How To Win Government Contracts For Your Startup" (http://www.th estartupjournal. com/win-government-contracts-startup/). The Startup Journal. Retrieved 30 April 2016.
11. "Business Incubation in Uzbekistan: The Current State and Future Prospects" (N. A. Karimov, 2021) — The state of business incubators in Uzbekistan and foreign experience in their development.
12. Bergek A., Norrman C. Incubator Best Practice: A Framework // Technovation. — 2008. — Vol. 28, No. 1–2. — P. 20–28. — https://doi.org/10.1016/j.technovation.2007.07.008.
13. "The Development of Business Incubators in Uzbekistan: International Experiences and Local Challenges" (Sh. A. Ismailov, 2020) — Foreign experiences and local difficulties in developing business incubators in Uzbekistan.